

– Ko‘pchilik sinfdoshlarim «G‘uncha» jurnaliga obuna bo‘lishdi. Men esa mana shu gazetaga obuna bo‘ldim. Undagi «8 yoshlilar sahifasi» menga juda yoqadi-da, – deydi Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 35-maktabning 1- «V» sinf o‘quvchisi

Muzaffar SOTVOLDIYEV



2007-yil  
10 – 16-dekabr  
N:50  
(66643)



Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong

YULDUZI

O‘zbekiston Respublikasi bolalari va o‘smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan



## RAQSLARI O‘ZIDEK QUVNOQ

Bolajonlar, orangizda «O‘zbekiston madaniyati va san‘ati forumi» jamg‘armasi tomonidan o‘tkazilgan «Yangi avlod» Bolalar ijodiyoti festivali g‘oliblariga havas qilmagan o‘g‘il-qizlar topilmasa kerak-a? Poytaxtimizdagi ijtimoiy fanlarga ixtisoslashgan maktabning 8-sinf o‘quvchisi Mohidil Oripova ana shunday baxtga muyassar bo‘lgan iqtidorli qizlardan.

Mohidil haqidagi maqolani 3-sahifada o‘qiydiz

## SENI YURAK TAXTIGA OLSIN

Tonglarimiz nurafshon aylab,  
Qalbimizni keng osmon aylab.  
Tongda bizni imtihon aylab,  
Peshvoz chiqib kel, «Tong yulduzi»!

Bolajonlar yo‘lingga mushtoq,  
Nurlar sochib, olamga hur boq.  
Toleyimiz bunchalar porloq,  
Shamol kabi yel, «Tong yulduzi»!

Bu dunyoda yulduzlar bisyor,  
Ular quvnoq, ular beg‘ubor.  
Yo‘limizni yoritib yubor,  
Seni sevar el, «Tong yulduzi»!

Ahtamqul KARIM

## ESHITMADIM DEMANGLAR!

Aziz o‘quvchilar, buyuk rus adibi Lev Tolstoyning bolalarga ham atalgan talaygina kitoblari borligini bilasiz-a? Bu kitoblar jahon bolalar adabiyotining nodir durdonalaridan sanaladi. Adibning «Tanlangan asarlar» to‘plamining 9-tomiga bolalarga atalgan ertaklari kiritilgan. Jonkuyar ustozimiz Anvar Karimov ana shu ertaklarni Siz uchun o‘zbek tiliga tarjima qildilar.

Shuningdek, Gulchehra Muhammadjonova J.K.Rolingning «Garri Potter va hikmatli tosh» romanini o‘zbek tiliga o‘girdi.

«Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo‘lsangiz, kelgusi yilning boshidan ushbu tarjima asarlarni miriqib o‘qishingiz mumkin.

## SAMARQANDLIKLAR YANA BIRINCHI

Obuna mavsumi qizg‘in davom etayotgan ayni pallada Samarqanddan xushxabar oldik: «Tong yulduzi» obunachilari soni sakkiz mingdan oshibdi. O‘tgan yili obunachilar sonining ko‘pligi bo‘yicha ro‘yxatning boshida turgan samarqandliklar bu yil ham birinchilikni qo‘ldan berishmaydi, chog‘i. Shuningdek, Farg‘ona, Namangan, Andijon va Jizzax viloyatlaridagi obunachilarimizga ham o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Tez orada Surxondaryo, Sirdaryo, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Navoiy viloyatlari ham ularga tenglashib oladilar, deya umid qilamiz.

**Shoshiling, obuna davom etyapti!**

**Obuna bahosi Toshkent shahri uchun 4116 so‘m.**

**Nashr indeksi – 198.**

## Yoshim yetdi sakkizga



Tohirjon Ubaydullayev Toshkentdagi 225-maktabning 7-«V» sinfida tahsil oladi. Rasm chizadi, sport bilan muntazam shug'ullanadi. Gazetamizning sportga oid sahifasini maroq bilan o'qib boradi.

Maktabida birinchilar qatorida 2008-yil uchun gazeta obuna bo'lib, «Boy bo'lishni istaysizmi?» sovrinli tanlovida qatnashish niyatida. U barcha tengdoshlarini o'zi sevib o'qiydigan gazeta bilan do'stlashishga chorlab qoladi.

### OTA-ONAMIZNI HURMAT QILAYLIK



O'shanda men 2-sinfda o'qirdim. Maktabimizda hamma o'quvchilar uchun maktab formasi joriy etildi. Darslar tugagach, uyga qaytib keldim-da, ota-onamni sabrsizlik bilan kuta boshladim. Ular kelishdi, ikkovlari ham juda horg'in ko'rinishardi. Onam oshxonaga kirdilar. Dadam esa kursiga o'tirib olib, dam ola boshladilar. Men ularga maktabdagi yangilikni aytdim.

– O'g'lim, biroz sabr qilsang, maoshimdan olib beraman, – dedilar u kishi.

Mening jahlim chiqib, olib bering, deya xarxasha qila boshladim. Ertasi kuni choyimni ichib bo'lgach, xayrni ham nasiya qilib ketdim.

Maktabga borgach, kechagi voqea esimdan ko'tarilgan bo'ldi. Lekin ikkinchi soatdan keyin hammaning ota-onasi kelib, o'z farzandiga formalarni tanlab ola boshlagach, mening xo'rligim kelib, sumkamni oldim-da, ketib qoldim.

Maktabdan chiqib, «Bugun uyga atayin kech boraman», dedim o'zimga o'zim. Kelganimda, dadamlar uyda ekanlar. Bir payt:

– Otabek, beri kel, buni kiyib ko'r-chi, to'g'ri kelsa kerak, – dedilar.

Ko'zlarim chaqna ketdi. Devordagi ilgichda yap-yangi forma osig'liq turgan edi. O'shanda tilimga bir og'iz so'z ham kelmagandi, kechagi qilg'im meni uyaltirardi. Shundagina ota-onamni qanday qiynab qo'rganligimni tushundim. Bundan keyin hech qachon ota-onamga hurmatsizlik qilmaslikka o'zimga o'zim so'z berdim. Hozir men katta oliygohlardan birida tahsil olaman. Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lishni o'rgatgan ota-onam borligidan xursandman.

Otabekning so'zlarini oqqa ko'chiruvchi

Muhammadislom ZOHIDOV

## O'LMAS SATRLAR YODI

Aziz bolajonlar! Sizlarga ma'lumki, bolalar adabiyotining taniqli namoyandasi, sevimli she'rlari bilan dilimizning tub-tubidan joy olgan O'zbekiston xalq shoiri Quddus Muhammadiy bobomiz tavalludining 100 yilligi keng nishonlandi. Ushbu tadbir O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti hamkorligida universitetning a'jumanlar zalida ham o'tkazildi. Tadbirda shoirning yor-u do'stlari, olimlar, ijodkor talabalar hamda she'riyat ixlosmandlari qatnashib, Quddus Muhammadiy bobomizning hayoti va o'lmas satrlarini zavq-shavq bilan yodga olishdi. O'z ish faoliyatini maktabda biologiya fanidan dars berishdan boshlagan shoirning tabiatga, ona Vatanga bo'lgan cheksiz hurmati, mehri uning she'rlarida o'z o'rnini topgan. Siz aziz bolajonlarni ham shoirning serqirra ijod namunalaridan bahramand etishni lozim topdik.

### QISH HAM CHIROYLI

Hay-hay, ko'rkam qish,

Qorlari kumush.

Guppa-guppa qor,

Bo'ralab yog'ar.

Sovuq chirsillar,

Suv muz, qirsillar.

G'uborsiz havo,

Jonlarga davo.

Tanda ham qaynoq,

Hammayoq oppoq.

Daraxtlar go'zal,

Shoxlarni bezar.

Qor-doka yo'rgak,

Novdalar go'dak.

Uyquda mizg'ib,

Yel esar izg'ib.

Tarnov, bo'g'otda

Sumalak katta.

Osilib qator,

Shag'amdek qotar.

Bir gala chumchuq,

Hovlida chirq-chirq.

Pir-pir uchishar,



**T. ADASHBOYEV:**

– Quddus aka shogirdparvar inson edilar. Ular ustozlik qilgan Rauf Tolib, Temur Ubaydullo kabi ajoyib bolalar shoirlarining o'zlari endilikda o'nlab ijodkorlarga ustoz.

Tomga qo'nishar.

Anhor suvi muz,

Qora tikon tuz –

singari rangi,

O'ynashib yangi

Besh-o'nta bola,

O'quvchi sara.

Yaxmalak otib,

Qor-muzga botib,

Ketdi tarqashib,

Tepadan oshib.

Gaz yonar boz-boz,

Uyning ichi yoz.

O'yin bo'ldi, bas

Tayyorlaymiz dars.

O'tirib asta,

Havas payvasta.

Ochishar kitob,

Yechishar hisob.

Hay-hay, ko'rkam qish,

Qorlari kumush.

Guppa-guppa qor,

Bo'ralab yog'ar.

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

Men shosha-pisha bobojonimning yoniga o'tib, paypaslab qo'lini ushlayman. Issiq, bilch-bilch terlab ham turibdi... Nima deyishimni bilmayman, juda yaxshi gap aytgim keladi, ammo o'sha gapni topolmayman. Boshimni asta ko'ksiga qo'yib, xush yoqarmikin, deya nam barmoqlarim bilan soqollarini ohista-ohista silay boshlayman.

– Barakalla, o'g'lim, – entika-entika qiynalib so'zlaydi bobojonim. – Qo'llaring biram yoqimlik... Enajoningni yolg'iz tashlab ketmagin, lekin ko'prikn boplab qurdik-da... Hay, jon bor joyda o'lim bor, roziman, hammasiga roziman. Qani, azamatim, enajonimni yolg'iz tashlab ketmayman, deb menga so'z ber-chi.

– Bobojon! – dedim-u, yig'lab yubordim.

– Hoy, Otajon, qo'yning bu gaplarni, – yana yolvordi enam. – Bolamning yuragiga qo'rquv solib nima qilasz? Isitmangiz ko'tarilib ketdi shekilli, alahlayapsiz. Xudo xohlasa, ertalabgacha tuzalib qolasz.

– Ha, onasi, umrimning aziz yo'ldoshi, yaxshilik uchun tug'ilgan ekansan, sendan nuqul yaxshilik ko'rdim, ammo qaytarolmadim. Mayli, mayli... Rahmonberdi o'g'limni, bu azamatimni o'gaylar qo'lga topshirib qo'ymagin, o'gay aka-ukalar, o'gay ota, begona hovli... Mung'ayib qoladi-ya. O'zing bag'ringda olib yurgin... O, zolimlar, o, zolim zamona... Nasridinboyning nabirasi bo'ladi-ya bu o'g'lim. Otasini quloq

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

qildilar, boyligini tortib oldilar, kaltakladilar, qamadilar, oxiri yigirma bir yoshida o'ldirdilar. Mayli, toylog'im, shularni sen bilib ol. Hoy, miltiqni ber menga, otaman, hammasini otaman. Ana, o'g'illarim kelyapti, miltiq molxonada, ustiga xashak tashlab qo'rganman...

B o b o j o n i m

o'midan turib ketdi.

Enam ham turib uni

m a h k a m

quchoqlab oldi.

Nima qilishimni

bilmay qoldim.

Yig'lay deyman-u, yig'i kelmayapti. Chiqib qo'shnilarimizni chaqirib kelay desam, ko'cha qop-qorong'i, zimiston. Men qorong'idan juda qo'rqaman. Nega desangiz, ajinalar qorong'ida qari daraxtlarning ortiga berkinib olib, ko'zlarini lo'q qilib qarab turishadi. Faqat bizning hovlimizda yo'q, xolos. Enam har xil duolar o'qib, ularni uzoq-uzoqlarga haydab yuborgan. Enajonim «la ilaha illollohu» degan duoni o'tgan yili qishda menga ham o'rgatib qo'rgan-u, baribir o'sha duoni o'qiyotganimda ham ko'zimga ajinalar ko'rinayotganday bo'laveradi.

Men ham o'rnimdan turib bobojonimning qoqsuyak bo'lib qolgan oyoqlaridan mahkam

quchib:

– Bobojonim, yo'q, o'lmaysiz, hecham o'lmaysiz, – deya dodlab yubordim, – siz o'lsangiz, enam ikkimiz ajinalardan qo'rqamiz, askarlar bizni paq-paq qilib otib tashlashadi.

– Yoting, endi yota qoling, – bobomni o'miga yotqizishga urinardi enam.

– Xudo xohlasa, hammasi joyida bo'ladi. Ertaga chilyosin o'qitamiz, qo'y so'yib xudoyi qilamiz.

Bobojonim entika-entika o'miga cho'zildi. Cho'zildi-da, menga xuddi birinchi bor

ko'rayotganday, ko'rsa ham taniyolmayotganday uzoq tikilib qoldi. Enam sandaldan olov olib, isiriq tutata boshladi. Hali rasmana tutab ham ulgurmagan edi, ko'cha eshigimiz taqilladi. Kim bo'ldi ekan? Ehtimol Zahro xolamdir? Bobom betob bo'lgandan buyon xabar olgani faqat qorong'i tushganda keladi. Ovqati kechga qolar emish... Kim bo'lsa ham kelgani yaxshi bo'ldi, deb o'yladim-da, kavush kiygani toqatim chidamay, yalangoyoq hovliga otildim. Enajonim doim bemahalda ko'cha eshikni ochishdan oldin kim ekanligini so'ra, begona bo'lsa, ochma, deb o'rgatardi.

(Davomi bor.)



## BETOBBLIK

**Ustozdan maktab**

*Mustaqil diyorimizda olg'a surilayotgan muhim mafkuraviy ishlardan biri o'zga millatlarga nisbatan insoniy bag'rikenglik psixologiyasini shakllantirishdir.*



Maktabimiz rusiyazabon bilim maskanlaridan biri bo'lib, turli millat vakillari ta'lim oladilar. Boshqa millatlarning milliy ruhiyatini o'rganish, qadrlash, e'zozlash orqali bolalarimiz ongiga millatlararo do'stlik, hamjihatlik tuyg'ularini mustahkamlashga intilyapmiz. boshqaradigan «Badiiy o'qish» hamda dramatik to'garaklarning faoliyati ham maktabimizda ta'lim olayotgan turli millat farzandlari orasida aynan shu tuyg'ularni tarkib toptirishga qaratilgan.

Respublika miqyosida noyabr oyida o'tkazilgan «Ona tili, adabiyot va davlat tili»

**«TONG YULDUZI»NING O'RNI BOSHQACHA**

oyligida tumanimizdagi 43 ta maktablar qatorida bilim maskanimiz o'quvchilari ham faol ishtirok etishdi. Kuni kecha tumanimizda oylik yakuniga bag'ishlangan seminar va festival bo'lib o'tdi. Unda to'garak a'zolarining rasmlari, turli mavzulardagi badiiy chiqishlari barchaning e'tiborini tortdi, insholar tanlovi g'oliblari rag'batlantirildi. Tumandagi 8-, 24-, 31- va 36-maktablarning turli mavzudagi chiqishlari samarali ekanligi ta'kidlandi.

Bunday ibratli ishlarni amalga oshirishimizda ommaviy axborot vositalarining ham o'rni beqiyosdir. Ular orasida sevimli nashrimiz «Tong yulduzi»ning alohida o'rni bor. Gazetaning rang-barang sahifalari, turli mavzudagi mundariyasi o'quvchilarimiz e'tiborini yana-da ko'proq jalb qilmoqda. Shuning uchun ham o'quvchilarimizning aksariyati ana shu nashrga obuna bo'lishyapti.

*Bahodir ALIMOV,  
Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanidagi  
36-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili fani  
o'qituvchisi*

**KOREYALIK MEHMONLAR «O'ZBEKISTON» NASHRIYOTIDA**

Kuni kecha Koreya Respublikasi delegatsiyasi «O'zbekiston» nashriyot-uyiga tashrif buyurishdi. Delegatsiya a'zolari nashriyotda o'zbek va qardosh tillarda umumta'lim maktablari uchun nashr etilayotgan darsliklarni tayyorlash hamda chop etish jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar. Nashriyot direktori Z.Isajonov koreyalik mehmonlarni nashr qilinayotgan darsliklar va boshqa ommaviy-siyosiy, adabiy-badiiy adabiyotlar bilan tanishtirdi.



yoshlarga ta'lim berish va ular uchun nashr qilinayotgan darsliklar haqida so'zlab berdi. Koreyalik mehmonlar nashriyot bo'limida va matbaa korxonasida bo'lib, darsliklarni tayyorlash va chop etish jarayoni bilan yaqindan tanishdilar.

*O'z muxbirimiz*

*Suratlarda: uchrashuvdan layha*

**RAQSLARI O'ZIDEK QUVNOQ**



Mohidil san'atga juda barvaqt mehr qo'ygan. 3 yoshli chog'idanoq «Bulbulcha» ashula va raqs dastasiga qatnab kelayotgan qizaloq maktab yoshiga yetgach, bilim maskani qoshidagi «Assalom, yangi avlod!» nomli dastaga ham a'zo bo'ldi. Sevimli ustoz Noila

Ortiqova unga 30 dan ziyod yakka ijroli raqs sahna lashtirdi. U, shuningdek, maktabdagi ustoz Gulnora Jo'rayevadan ham raqsning nozik sir-u sinoatlarini mehr bilan o'rganib kelyapti. Yoshlik chog'laridanoq respublikamizning bosh maydoni va O'zbekiston milliy bog'ida o'tkazib kelinayotgan Mustaqillik va Navro'z tantanalarida muntazam ishtirok etib kelayotgan Mohidilning raqslari ham o'zidek sho'x, quvnoq.

Festivalning shahar bosqichida raqs san'atimizning malikasi sanalmish Mukarrama Turg'unboyeva sahna lashtirgan «Qo'sh doira» raqsi bilan qatnashib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi. Respublika bosqichida esa «Fig'onkim» nomli raqsini zo'r mahorat bilan ijro etib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Kelajakda shifokor bo'lish orzusidagi Mohidil san'at hamisha hamrohi bo'lishini istaydi. Chunki u san'atga oshno tutingan insonning qalbi ham go'zal bo'lishini yaxshi biladi.

*AZIZA*

3

**TUMANDAGI ENG OZODA MAKTAB**

Zangiota tuman Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli 12-maktabga kirib borar ekanmiz, maktab chor-atrofining ozodaligiga alohida e'tibor berdik.

– Bilim maskanida «Maktabimizni tumandagi eng ozoda maktabga aylantiramiz» shioriga qat'iy amal qilinarkan. U yerda 645 nafar o'quvchiga 50 ta o'qituvchi ta'lim-tarbiya bermoqda. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida, maktabda «Turon», «Basketbol», «Drama», «To'quvchilik», «Munchoq bilan tikish», «Zardo'zlik», «Ashula», «Yosh rassomlar» singari to'garaklar faoliyat yuritmoqda. Yaqinda «Turon» to'garagi a'zolari viloyat bo'yicha o'tkazilgan «Turon» yakkakurash musobaqalarida sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritgani, ayniqsa, diqqatga sazovordir. «Yosh qalamkashlar» to'garagiga esa Orzugul ISIDULLAYEVA rahbarlik qiladi. Bu to'garak a'zolari ham maktabda o'tkaziladigan har bir tadbirda o'zlari yozgan she'rlarini o'qib, barchani xushnud etishar ekan.

Maktab o'quvchilarining «Tong yulduzi» gazetasi haqidagi fikrlari bilan qiziqdik. Ular bizning gazetamizni qiziqib o'qishlarini va ularga «Go'zallik bekati», «Adiblar – bolalarga», «O'n sakkiz yoshligim» ruknlarini ko'proq ma'qul bo'layotganligini aytishdi. Bu maktab obunachilari soni 2007-yilda 8 nafardan iborat bo'lib, 2008-yilda bu ko'rsatkichni 20 nafarga yetkazishga so'z berishdi.

**IZLANUVCHAN BOLALAR**

Safarimizni davom ettirib, Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 265-maktabga tashrif buyurdik. Bu maktabning yutuqlari bilan qiziqdik. Maktabda 924 nafar o'quvchi bilim olar ekan. 30 ga yaqin to'garaklar hamda 6 ta sport seksiyalari faoliyat yuritmoqda. Zamonaviy tarzda qurilgan sport zalida bolajonlar uchun barcha kerakli sport anjomlari muhayyo. Shu bo'smi, XXVII Respublika «Quvnoq startlar» televizion sport musobaqasida 24 nafar o'quvchi ishtirok etib, faxrli 3-o'rinni egallab, 3-darajali diplom va bronza medali hamda kubok bilan taqdirlanibdilar. Bu maktab o'quvchilarining ham «Tong yulduzi» gazetasi haqidagi fikrlari bilan qiziqdik. Ular bir ovozdan «Milliy urf-odatlarimiz yoshlar talqinida», «Tabriklaymiz-qutlaymiz!», «Ajdodlarimizni o'rganamiz», «Sog' tanda - sog'lom aql», «Onajonim tabiat», «Bu qiziq!», «Adiblar – bolalarga» kabi rukn va sahifalar ularga ma'qul bo'layotganini aytishdi. Shuningdek, bu izlanuvchan o'quvchilar skanvord va krossvordlarni yechishga ham qiziqishlarini aytishdi. Biz albatta bu o'quvchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olamiz.



*Muzaffar AHMEDOV*

Maktabda bir kun

Kuni kecha poytaxtimizdagi 256-o'rtta maktabda bolalar adabiyotining yetuk namoyandasi O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonning 60 yoshga to'lishi munosabati bilan ajoyib uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbir mushoiraga aylanib ketdi. Adiblar bilan bir qatorda havaskor o'quvchilar ham o'z mashqlaridan namunalari o'qib berishdi. Ayniqsa, 6-sinf o'quvchisi Nigoraxon Qurbonovanning she'rlari bizda yaxshi taassurot qoldirdi. Nigoraxonning mashqlaridan ba'zi namunalarni «Tong yulduzi» mushtariylariga ham ilindik.

**Tursunboy ADASHBOYEV**

## BAHOR

Bahor uyg'onish  
Misli bir g'uncha.  
Daraxt shoxlari  
Meva tukkuncha.  
Gullar kapalak  
O'ynaydi quvnoq.  
Bog'da bulbullar,  
Sayraydi sho'xroq.  
Bahor bu ajib  
Bir fasl, zo'rki.  
Qizg'aldoqlarning  
Ochilar ko'rki.  
Mayin shamollar,  
Bahordan darak.  
Bu fasl sizga,  
Bo'lsin muborak!  
Umid gullari,  
Ochilar asta.



Bunchalar go'zal,  
Bahor, guldasta.  
Har bir yurakda,  
Bahor yashaydi.  
Har bir kurtakda,  
Quvonch to'shaydi.

## USTOZ

Qalam tutqazib qo'lga,  
Ilm o'rgatib bizga.  
Yo'l-yo'riq ham ko'rsatib,  
Ustozsiz o'g'il-qizga.

Biz ustoz bildik Sizni,  
Berdingiz dildan ta'lim.  
Rahmat sizga, biz uchun  
Ta'lim bergan muallim.

**Nigoraxon  
QURBONOVA,  
Toshkent shahridagi  
256-maktabning  
6-sinf o'quvchisi**

## TUSH



Tush ko'raman tunning ertaklarida,  
Hayhot baxt to'kilar etak-etaklab.  
O'ychan xayolotning ertaklarida,  
Peshonamga umid bosayapti lab.

Yuragimga to'kib nafasat rangin,  
Baxtga burkab ketar tilaklarimni.  
Taralganda tordan shodlik jarangi,  
Bir his chimchilaydi yuraklarimni.

Ko'ksimda ishq tortar quyoshdek yal-yal,  
Masrurlikka cho'mib yotaman hamon.  
Ko'zlarim nur ila ochganim mahal,  
Shiftga o'zin osib qo'yibdi armon.

**Abdumannob MANSUROV,  
Uvaysiy nomidagi adabiyot  
to'garak a'zosi**

## VODIY SADOLARI

Ustoz Abdulla Oripov ta'biri bilan aytganda, «Farg'onada har bir daraxt, har bir rayhon orqasidan bir shoir chiqib keladi». Vodiya kezib yurganimda, donishmand shoirimizning so'zlari qanchalar haq ekanligiga ishonдим. She'riyat bo'stoniga o'zlarining beg'ubor ovozlari bilan kirib kelayotgan bir guruh yosh ijodkorlarning ijod namunalari eshitib, ko'nglimdan she'riyat gulzorlarini sog'inib yo'l olgan, so'zlari buloq suvidek toza, pokdomon ijodkorlarga ezgulik dilingizni tark etmasin, deya oq yo'l tilash niyati kechdi.

**AXTAMQULI**



## DAVRADA GO'ZAL SANAM

Qomatini g'oz tutib,  
Oyoq uchida o'tib.  
Qoshlarini o'ynatib,  
Durdonaxon raqs etar.

Bir, ikki, uch o'ng oyoq,  
Ohangga soling quloq.  
Yelib, yuguring tezroq,  
Durdonaxon raqs etar.

**Durdona USMONOVA,  
Namangan viloyati,  
Namangan san'at kolleji  
talabasi**

## QISHLOG'IMNING BOLALARI



Parvo qilmay cho'miladi loyqa suvlarda,  
Topolmaydi istab amma-xolalari.  
Tanasiga quyosh nuri dastxat qo'ygan,  
Qishlog'imning qoramag'iz bolalari.

Daraxtlardan meva terib qorni to'yar,  
Hatto qolmas qizarmagan lolalari.  
Bargini ham boshlariga do'ppi qilar,  
Qishlog'imning shirin-shakar bolalari.

O'ynayverib jazirama kunlarda ham,  
Issiq o'tsa topilmaydi tolalari.  
Yozda davo topar suvdan tinim bilmay,  
Qishlog'imning pahlavondek bolalari.

Qanot so'rar osmondagi samolyotdan,  
Yulduzlarga to'lib ketgan donalari.  
Varraklarning oyoqlari qo'llarida,  
Qishlog'imning xayolparast bolalari.

Issiq kunda tashir sovuq choylarini,  
Chaqiradi kelmay qolsa dalalari.  
Yoshligidan onasiga yordam berar,  
Qishlog'imning mehnatsevar bolalari.

O'zi bola, ukasini qo'ldan qo'ymas,  
Kattalarni uxlatadi allalari.  
Chuchukkina tillaridan bollar tomar,  
Qishlog'imning baxshigina bolalari.

Unib-o'sib, hokim bo'lib shaharlarga,  
Yurtimizning qiridagi lolalari.  
Davlatimiz poydevori naqshi bo'lar,  
Qishlog'imning yaxshigina bolalari.

**Nilufar QAYUMOVA,  
Namangan viloyati, Uychi tumani**

## ONAMGA

Qaddi dolim, qadringizni bilmabman-a,  
Ko'zimga xok, dilda alam to'lmasmidi?  
Shuncha yashab bir bor rahmat demabman-a,  
Eh, sadqai odam ketsam bo'lmasmidi?

Bir tola sochingizga arzimasan,  
Yuzingizni ajin qilgan menmasmanmi?  
Gar uzatsam oyga yetar bu qo'limdan,  
Belingizga darmon bo'lsam bo'lmasmidi?

Har narsani taqdir dedim ammo, lekin  
Shu taqdirni o'z qo'lim-la etdim bunyod.  
Ko'p sog'indim, onajon, lek sizga qachon,  
Sog'indim deb aytganimni qilolmam yod.

Yuzim bosib qo'llaringiz qadog'iga,  
Ko'zimdan yosh yumaladi, dil ezildi.  
Yetolmadim armonlarning adog'iga,  
Ko'zlarinigiz tubida bir dard sezildi.

Bir tomchi ko'z yoshingizga arzimasan,  
Shu birgina ash'or bilan ko'ngil to'lmas.  
Boshim uzra bedor o'tgan bir tun qarzin,  
Sha'ningizga kitob bitsam uzib bo'lmas.

**Iroda MIRRAHIMOVA,  
Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumani**



## ORZULARIM

Orzularning osmonida yashayman,  
Hur fikrlar ummonida yashayman.  
Bolalarga baxtiyorlik baxsh etgan,  
Istiqlolning zamonida yashayman.

## YOMG'IR

Yomg'ir yog'ar tong sahar,  
Mayin shivirlab yog'ar.  
Bo'lar havo musaffo,  
Yomg'ir bir dilkash navo.  
Yomg'ir yog'ar tog'larga,  
Dalalarga, bog'larga.  
Yomg'ir yog'ar tun-u kun,  
Zavq bag'ishlab ularga.  
Yomg'ir yog'sa, men doim  
Sevinchimdan kuylayman.  
Yangrab ketar ijodim,  
Dildan yayrab quvnayman.

## ZILOLA

Ko'ngli chinni piyola,  
O'zi mitti hilola.  
So'rasangiz bu qiz kim,  
Mening singlim Zilola.

**Zarnigor SUBONOVA,  
Termiz shahridagi 10-o'rtta  
maktabning 7-sinf o'quvchisi**



## KAPALAK

Kapalak, hoy, kapalak,  
Uying bog'mi yo falak?  
Qanoting buncha nafis,  
Sen gulzorda hur malak.

Xiroming go'zal buncha,  
Sahnang sening – gulg'uncha.  
Bog'imdan hech ketmagin,  
Tong otib, kun botguncha.

**Ra'no XOLMUHAMMEDOVA,  
Sergeli tumanidagi  
304-maktabning 8-sinf  
o'quvchisi**

Biz uzoq yo'l bosib, Farg'ona shahrida joylashgan ixtisoslashgan maxsus futbol litsey-internatiga yetib borganimizda, tong endigina yorishgan edi. Futbolchi bolalar esa chiniqqan, yosh sportchilar-da, ular bizdan ham avval uyg'onib, allaqachon maydonda mashg'ulotlarni boshlab yuborishgan ekan.



# ULAR ZIDANGA O'XSHASHMOQCHI

**O'tkir MUHITDINOV, litsey tarbiyachisi:**

- Bu litsey-internatga kelganimga to'rt yil bo'ldi. Sportni sevgan bolajonlar bilan ishlashga ko'nikib ketganman. To'g'risi, biror kunimni ularsiz o'tkazolmayman. Ularning tarbiyasi ko'proq tarbiyachi zimmasida bo'ladi. Shu sababdan ham o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini unumli va maroqli o'tkazishga harakat qilaman.

**Muhammadjon TOSHMATOV, ixtisoslashgan maxsus futbol litsey-internati birinchi toifali murabbiyi:**

- Internatimizda o'quvchilarning bilim olishi, futbol bilan jiddiy shug'ullanishi uchun sharoitlarimiz bor. Bolalarga o'z farzandlarimizdan ham ko'proq e'tibor beramiz. Har bir sinfga sinf rahbari, 2 nafar murabbiy va 2 ta tarbiyachi birlashtirilgan. Bo'lajak futbolchilar internatimizda ikki mahal kuchaytirilgan mashg'ulot bilan shug'ullanadilar. Oshpaz aka-opalari esa ularni to'rt mahal issiq ovqat bilan siylashadi. Bu yerga iqtidorli, futbolga qiziqishi baland bo'lgan o'quvchilar tanlov asosida 5-sinfdan qabul qilinadi.

Bugungi kunda sport maskanimizda 320 nafar o'quvchi tarbiyalanadi. Shu kungacha ular orasidan O'zbekiston chempionlari yetishib chiqdi. Bizning quvonchimiz shuki, aksariyat shogirdlarimiz mamlakatimizning bosh jamoasi «Paxtakor» va «Neftchi» tarkibida to'p surmoqda. Maqsadimiz, chempionlar safini yana-da ko'paytirish.

Men 8-sinf o'quvchilariga murabbiylik qilaman. Avvalo, o'quvchilarimni yaxshi inson, qolaversa, yaxshi futbolchi, kuchli sportchi bo'lishlariga ishonaman.



**Jalol IKROMOV, markaziy himoyachi:**

- Men Namangan viloyati, Chust tumanidan kelganman. Hozirda 8-sinf o'quvchisiman. Futbolga juda qiziqaman. Yaqinda Samarqand shahrida futbol litsey-internati o'quvchilari o'rtasida Respublika birinchiligi final bosqichi o'tkazildi. Unda bizning futbol jamoamizga ikkinchi o'rin nasib etdi.

**Xislat RAHMONOV, yarim himoyachi:**

- Men Farg'ona viloyati, Buvayda tumanidanman. Sportga qiziqishim meni futbol internatiga yetakladi. Istardimki, har bir tengdoshim o'zlariga yoqqan sport turi bilan shug'ullansin.

**G'ayrat JO'RAYEV, hujumchi:**

- Futbol litsey-internatimizda o'qishni xohlaydiganlar juda ko'p. Biroq, saralarning sarasigagina internatda o'qish nasib etadi.

Bir yilda ikki marta futbol me'yorlari yuzasidan imtihon topshiramiz.

**Sodiqjon MARAIMOV, o'ng tomon hujumchisi:**

- Murabbiyim Filipp Klipikovdan futbol sir-asrorlarini o'rganganimga ham uch yildan oshdi. Yaqinda men G'azalkentda o'tgan xotira turnirida tengdoshlarim orasida raqib darvozasiga to'p kiritishda birinchilardan bo'ldim. Maqsadim, shu internatni tugatib, shahrimizning «Neftchi» jamoasida yaxshi futbolchi bo'lib, o'z muxlislarimga ega bo'lish.

**Ahror USMONOV, G'ayrat HASANOV, darvozabonlar:**

- Biz maydonda yarim himoyachi vazifasini bajaramiz. Chunki darvozabon epchil, chaqqon bo'lsagina, jamoaning yutuqlari ko'p bo'ladi. Kelajakda yaxshi darvozabon bo'lishni orzu qilamiz.



5

Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufida 33 ta Bolalar va o'smirlar sport maktabi, 2 ta sport yo'nalishidagi maktab-internat, 4 ta bolalar sport majmuasi faoliyat yuritadi.


## G'ALABALAR ESHIGI

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi Bolalar va o'smirlar suzish sport maktabida hozirgi kunda 523 nafar sportchi mashg'ulotlar bilan band. Ularga 18 nafar tajribali murabbiylar sportning suzish, sinxron suzish va suv polosi singari turlarida mashg'ulotlar o'tkazmoqdalar. Ushbu maktabning o'quvchilari hozirda yurtimizning taniqli sportchilariga aylanishgan. Maftuna To'xtasinova, Ra'no Amanova, Shohruh Yunusov, Sobitxon Amilov kabi iqtidorli sportchilarimiz Avstraliya, Malayziya va Germaniya davlatlarida o'tkazilgan sport musobaqalarida munosib o'rnlarni egallashdi.

Suzish sport turi bo'yicha Maftunabonu To'xtasinova 11 yoshida sport ustasi me'yorini bajarib, 200 metrga chalqancha suzishda O'zbekiston rekordini yangilab, Qatar davlatida o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida ishtirok etdi. Ra'no Amanova esa O'zbekiston chempionati birinchiligida qatnashib, suzish bo'yicha jami 15 ta oltin medalga sazovor bo'ldi.

Bugun Ra'no kabi Andijonning yoshlaridan umidimiz katta. Demak, shahrimizning suzish maktabi haqli ma'noda farzandlarimiz uchun g'alabalar eshigini ochyapti, deb ayta olamiz.

Rahmatilla BUVAQULOV, Andijon viloyati «Yoshlik» jismoniy tarbiya va sport jamiyati raisi



## STADIONNI YANGILAYMIZ

Tumanimizning eng bahavo va qir-adirlar yaqinida joylashgan maktabimiz chindan ham ajoyib maskan. 11 yildirki, shu maktabda jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lib ishlayman. Sportning qo'l to'pi turida shug'ullanib, hozir shu maktabda maxsus sport sinflarini tashkil etganman. O'quvchilarimiz tuman, shahar, viloyatda o'tkazilgan musobaqalarda qatnashib, g'olib bo'lib qaytishyapti.

Qizlar o'rtasida qo'l to'pi bo'yicha Go'zal Eshpo'latova hatto Respublika musobaqalarida munosib o'ringa ega bo'ldi. O'g'il bolalar o'rtasida Behzod Isroilov esa sportning shu turidan tumanimiz sharafini himoya qilib kelmoqda.

Agar maktabimiz stadionini ko'ngildagidek yangilay olsak, yana-da ko'p muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishimizga ishonchimiz komil.

Yorбек TURSUNQULOV, Farg'ona tumanidagi 3-maktabning jismoniy tarbiya o'qituvchisi



Farg'ona viloyati Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli Bolalar va o'smirlar sport maktabi, futbol litsey-internati hovlisini to'ldirib, bir olam niyatlar og'ushida to'p surayotgan har bir bolani kuzatar ekanmiz, ulardagi futbolga bo'lgan qiziqishni ko'rib, rosti, suyundik. Ertaga jahon maydonlarini, ajabmas, shu internat o'quvchilarining dovrug'i tutsa... Ular bejiz Zidanga, Raulga, Mirjalolga o'xshashga intilmayapti.



Ma'mura va Feruza yozib oldi. G. ORIFJONOVA olgan suratlar

Astrid LINGREN

TOMDA  
YASHAYDIGAN  
KARLSON

## va Bolakay haqida qissa

U l a r yo'lakka chiqib, bitta-yarimta k i s h i n i k u t m o q c h i b o'lishdi. Bolakay eshik ochgani bordi. Q a r a s a, tashqaridan birov eshik qulfiga po'lat sim tiqyapti. Bolakay qo'rqib ketdi. Demak, dadasining aytgani rostga o'xshaydi. Hozir o'g'rilar kunduz kuni uyga telefon qilishar ekan, hech kim javob bermasa, ha, uy egalari yo'q ekan, deb qulfn buzib, tunashga kelishar ekan. Hali-zamon bekor telefon qilishmabdi-da...

Krister, Gunilla, Bolakay, endi nima qildik, degandek, bir-biriga dovdirab boqdilar. Uchchalasi yurak hovuchlab turishardi. Yolg'iz Karlsonning parvoyi palak.

– O'zlarini bosinglar, hammasi joyida bo'ladi, – dedi u, – qani, ko'raylik-chi, o'g'rilar holini ne kechar ekan? Hozircha oshxonaga kirib bekinib turamiz.

Krister bilan Gunilla bir shkafga kirib olishdi, Karlson idish-tovoq turadigan bufetga yashirindi, Bolakay bo'lsa, o'zini divanning ostiga urdi.

Eshik asta ochildi. Oyoq uchida ikki yigit kirdi. U yoq-bu yoqqa alanglab birpas turishdi. Bolakay divandan boshini chiqarib qaradi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, ikki o'g'rining biri Fille, biri Rulle edi.

– Pullari qayerda ekan-a, avval shuni topish kerak, – dedi Fille.

– Qayerda bo'lardi, mana bunaqa yerda bo'ladi-da! – deb Fille sochiq, dasturxon solinadigan g'aladonlik shkafchani ko'rsatdi.

– Bo'lmasa, sen shu yerni tozalab



tur, men narigi xonaga o'tib kelay, – dedi Fille, – tilla, kumush buyumlar bor bo'lsa, zora.

Rulle shkafning tortmalarini birma-bir ochib ko'ra boshladi. Bir vaqt u cho'zib xushtak chalib yubordi. Qo'l ostida bir nechta tilla zanjir bilan zar

taqinchoqlar yotardi. Xuddi shu zahoti bufetning eshigi lang ochildi-yu, motorini vag'illatib oppoq arvoch uchib chiqdi. U qanotini yoyib vahimali ovoz chiqargan ko'yi to'g'ri Rullening ustiga bostirib kelardi. Rullening tovonigacha muzlab ketdi. U jon holatda qo'lidagi taqinchoqlarni yerga tashladi-yu, boshini changalladi. Arvoch esa uning tepasida ikki aylandi, so'ngra Fille turgan xonaga qarab uchdi.

Hademay rangida qon yo'q, tilini osiltirib Fille ham yetib kirdi. «Arvoch» degani uning tili aylanmas, hadeb «Voh! Ar-r! Arul-le!» deb g'o'ldirardi. Karlson esa choyshabni hilpiratgancha uni quvib kirdi, goh oldiga, goh ortiga o'tib hamla qildi. U orachora «M-men-n! Bub-... bub-bono!» deb g'alati tovush chiqarib qo'yardi.

Rulle bilan Fille tiraqaylab qochdilar. To'rt hatlab dahlizga, undan yo'lakka o'tib, lo'killangan chaga ko'chaga qarab quyon bo'lishdi. Karlson esa tinmay ming'illar, ularni zinapoyalardan yiqitgudek quvib borar, goho «Hoy, to'xtanglar! Sizlarga birovning mulkiga ko'z olaytirish qanaqa bo'lishini bir ko'rsatib qo'yay!» deb qichqirar edi.

Oxiri o'g'rilar qochib, ko'chaga chiqib ketishdi. Karlson ham charchab, iziga qaytdi. Gunilla bilan Bolakay yerda sochilib yotgan tilla taqinchoqlarni terib, yana joyiga solishayotgan ekan.

– Duniyodagi eng uchqur va botir arvoch o'zim ekanmanmi, ishondinglar, a? – dedi Karlson va choyshabdan chiqdi.

– O'zingsan! – deyishdi bolalar va chapak chalib yuborishdi.

## Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

Hamamiz kulib yubordik. «Voy, u do'xtirdan qo'rqadi», dedi onasi ham kulib.

Mamariza tog'a meni ham bir marta xuddi shunaqa o'limdan olib qolgan edilar. Unda men ilon zahar solgan sutni ichib qo'ygan edim. Bu haqda «Champo otli ilon» qissasida yozganman.

Mamariza tog'a judayam bolajon odam edilar. Biz maktabdan erta bahor g'o'zalarni yagana qilgani, kuzda paxta terimiga chiqqanimizda nuqul o'qituvchiga o'xshab atrofimizdan nari ketmas edilar. Mamariza tog'a shu yerda bo'l-salar, o'qituvchilar ham bo'lar-bo'lmasga bizga baqirishovurmasidi. Tog'a tushlik, tolmachoy paytlarida ham biz bilan birga o'tirardilar.

– Tog'a, bolalarni Sizga berdik, bir mulla qilib bering, bizzu manovi yerimizga keltirishdi, – deb tomoqlarini arra qilib ko'rsatishardi o'qituvchilar. Biz jovdirab tog'aga qaraymiz. Tog'a yumshoqqina kulib qo'yadilar. Rostdan ham shum edik. Peshin mahali tog'aning yoni talash bo'lardi. Qarab turib biz bolalar o'z-o'zidan to'riga chiqib qolardik.

Ko'lxozchilar tog'adan yuqoriga o'tirishmasdi. Tabelechi Yo'ldosh aka ham, og'zi botir Egamberdi zvenovoy ham p o y g a d a qolishardi. B i z

kattalar kulishadi. Biz uchun eng azoblisi ovqatdan bo'shagan idishga choy quyib, chayindi qilib ichish. Katta qozonning ugra oshidan keyin chayindi xuddi yuvindiga o'xshab ko'ngilni aynitib yuborardi. Lekin Xudo kosani chayib ichgan bandalariga Jannatdan bittadan uy qurib qo'yishini o'ylaganimizda, yuvindi ham shirin tatib ketadi... Yana mazza tomoni kunora-kunora ustiga shakar sepilgan qatlama, yog'da pishgan chalpaklar kelib turadi. Tog'ani oldiga qo'yishadi-da, «Yeb, ota-onamga Qur'on o'qib yuboring» yoki «Duo qiling, kelinimning ko'zi yorib olsin», deyishadi. Bu pishiriqlardan ko'zimiz o'ynab, og'zimiz suv ochadi. Mamariza tog'a pishiriqni shoshmasdan

barchamizga barobar taqsimlab chiqadilar, o'zlari ushoqlarini og'izlariga solib, tamshanadilar. Yeb bo'lganimizdan keyin dasturxonaga duo qilib, shunday tilovat qiladilarki... yechilib ketardilar, yechilib. Yuzko'zlaridan bilib turamiz, tog'a Qur'on o'qisalar, biz pishiriqlarni yeb qanchalar mazza qilsak, ular ham shunchalar mazza qiladilar. Yuraklarimizni yumshatib yuboradilar, ko'zlarimizga yosh keladi. Chordana qurib, tog'aning arzandasi bo'lib o'tiramiz. Qur'on tugagach, duoga hafsala bilan qo'l ochamiz. «Bolalarning duosi tezroq qabul bo'ladi, bular begunoh», deb narximizni battar oshiradi Mamariza tog'a...

Bunaqa yog'lik pishiriqlar, Qur'on o'qishlardan keyin mazza qilib cho'milgimiz kelib qoladi. Dala shiyponi yonidagi ariqqa qarab chopamiz. Endi bizga Mamariza tog'ani keragi yo'q. Ko'ylak-ishtonlarni yechib cho'milish kerak. Ishton ho'l bo'lsa, quritish qiyin bo'ladi. Ammo tog'aniyam shumligi tutadi. Eshakni sug'orish bahonasida ariq bo'yiga kelib o'tirib oladilar. Endi shiryalang'och suvga tushib bo'bmiz. Har xil so'kishlar ham ichimizda qolib ketadi...

Bir kuni boshqorong'i xotinlar Zayniddin ikkovimizga bir etakdan paxta berib, qurtmi, tuzlangan qoq baliqmi, go'shtmi topib kelishni aytishdi. Topib kelsak, yana bir etakdan paxta beradigan bo'lishdi. Bu ish ikki bukehayib paxta terishdan ming marta oson edi. Biz kimmi tomida qurt, suzma bo'lishini, kimmi sim dorida qoq baliq, go'sht bo'lishini yaxshi bilamiz... Sekingina daladan quyon bo'ldik. Ammo aksiga olib ro'paramizdan Mamariza tog'a chiqib qoldilar. Xuddi o'g'irlik ustida qo'lga tushgandek qo'rqib ketdik. Tog'a turishimizdan niyatimiz buzuqligini sezidilar, shekilli:

– Ha, qaqqa otlandilaring, hamma daladayu? – deb so'radilar.

Ikkalamiz baravariga yerga qarab oldik. Tog'aga tik qaray olmaymiz. U kishidan bir nimani yashirib bo'lmaydi o'zi. Hoynahoy o'g'irilikka ketayotganimizni bilib turibdilar.

6

Erkin MALIK  
UCHAR OTLAR  
BO'LGAN EDI...

Qissa



(Davomi bor.)



**Yaqinda poytaxtimizdagi Xalqlar do'stligi saroyida «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamkorligida tashkil etilgan «Kelajak ovozi - 2007» Respublika yoshlar tanlovi g'oliblarini tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.**

**Shu munosabat bilan «Kelajak ovozi» tanlovining jamoatchilik Kengashi a'zosi, sevimli shoirimiz Muhammad Ismoilni suhbatga chorladik:**

## KELAJAK YULDUZLARI

– Muhammad aka, yoshlarimizning ijodiy harakatiga aylangan ushbu ko'rik-tanlov qanday bo'lib o'tdi?

– Mana, «Kelajak ovozi» Respublika ko'rik-tanlovi uch yildan buyon mamlakatimizda qizg'in davom etmoqda. Ayniqsa, bu yil kutilmagan yangiliklarga, ijobiy o'zgarishlarga boy yil bo'ldi. Unda 17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan 32 ming yosh yigit-qizlar davrimizning olovqalb yoshlari ishtirok etish uchun istaklarini bildirishgandi. Dastlab tanlovning tuman bosqichi bo'lib o'tdi. So'ngra, viloyat bosqichi va nihoyat, eng saralanganlari, eng kuchlilardan iborat 549 nafar ishtirokchi azim va mahobatli poytaxtimizga yetib keldilar.

– Badiiy ijod sahifasidagi ishtirokchilar haqida kengroq ma'lumot bersangiz.

– Badiiy ijod, ya'ni she'riyat, nasr va jurnalistika sohasida yil boshida to'qqiz ming yetti yuzga yaqin ijodkor yoshlar o'z asarlarini taqdim etishgan edi. Respublika bosqichiga ulardan oltmish ikki nafari yetib keldi va ulardan o'n bir nafari g'oliblik shohsupasiga mardonavor ko'tarildilar.

– Ular bilan batafsilroq tanishtira olasizmi?

– Ular farg'onalik Dilshoda Halimjonova,

qashqadaryolik Otabek Rahimov, buxorolik Marhabo Umidova, toshkentlik Yulduz Fayz, jizzaxlik Gulnoza Mamarasulova, samarqandlik Mashhura Hasanova, Qoraqalpoqdan Guloyim Ayimbetova, navoiylik Ibrohim Jo'ra, namanganlik Xurshida Nishonova, jizzaxlik Manzura Muhitdinova...

– Ularning ijodlarini baholashda qaysi mezonlarga ko'proq e'tibor berildi?

– Fikrni go'zal, badiiy tashbehlarda ifodalash mahoratiga, mazmun va shakl muvofiqligiga, ijodiy ishning ijtimoiy mohiyatiga, muallifning badiiy saviyasi, ma'rifiy xazirasi, tafakkur doirasining kengligi, millatparvarligi, vatanparvarligi, insonparvarligi, umuminsoniy qadriyatlariga ijobiy yondoshishi, iste'dodining yorqinligi singari ko'plab mezonlarga asoslanib baholandi.

– Siz ham o'quvchilik davringizda mana shunday tadbirlarda qatnashganmisiz?

– Yo'q. Kishini ijodga undovchi, rag'batlantiruvchi bunday ko'rik-tanlovlar Mustaqilligimiz sharofatidan deb bilaman. Men sakkizinchi sinfda o'qib yurganimda, «G'uncha» jurnaliga o'z she'rlarimni yuborganman. Shunda, menga jurnal bosh muharriri Yayra Sa'dullayevadan bir enlik: «Ijod qilishdan charchamang, mashq qilaversangiz, albatta yaxshi she'r yozasiz», degan mazmunda xat borgan. Shu xatni uch yil, to universitetga qabul qilingunimga qadar ko'tarib

yurganman, mana yigirma yildan oshdiki, qo'limda asrab yuraman.

– Balki, ishtirokchilar ichida mukofot uchun yozayotganlari ham bordir?

– Menimcha, yo'q. Chunki shoirmi xalqning yuragi tug'adi. Shoirlik Xudodan beriladigan ne'mat. Bu ko'rik-tanlovda qatnashganlar ham, ayniqsa, g'oliblar, haqiqiy yorqin iste'dod egalari, kelajak adabiyotimiz ovozlari, chaqnoq yulduzlaridir. Qolaversa, mashhur shoir Rasul Hamzatovga bir qiz:

– Sen men haqimda she'r yozib-yozib, shoir bo'lib ketding-a, agar men bo'lmaganimda, shoir bo'lolmasding, – deya ta'na qilganda, shunday javob bergan ekanlar:

– Mana, ering qassob. Qani, uni ham shoir qil-chi, ko'raylik!

Mana shunday, agar kishini Xudo shoir qilib yaratmasa, uni hech qanday ko'rik-tanlov shoir qilolmaydi. «Kelajak ovozi» esa Xudo yaratgan shoirlarni, iste'dodlarni rag'batlantiruvchi, ijodning keng yo'lga, ulkan dovonlariga boshlovchi ulkan bayram, ijodiy zafarlar tantanasi bo'ldi.

– Bu yoshlarga tilaklaringiz?

– Ijodning mashaqqatli yo'lida kuch-sabot, shijoat, yorqin tafakkur, otashin qalb yor bo'lishini tilayman. Ular ijodning endigina birinchi pog'onasidalar. Ijodiy mukammallikka erishdik, deyishlariga hali erta.

Ikki xo'roz urishib qolibdi. Mag'lub bo'lgani ovloqroq yerga yashirinibdi. G'olib chiqqani esa baland tomga chiqibdi-da, kerilib, ovozining boricha «ku-ku»lab, atrof-tevarakka jar solibdi.

Maqtanchoq xo'rozga burgutning ko'zi tushib qolibdi. U tom ustiga o'qdek otilib sho'ng'ibdi-yu, qanoti bilan xo'rozni bir urib, panjalarida mahkam siqqancha osmonga uchib ketibdi.

Xudo bunday maqtanchoqlikdan hammamizni asrasin. Hali xalqimiz, Ona Vatanimiz oldida qiladigan juda ko'p buyuk ishlar bizlarni kutib turibdi. Suhbatni «Kelajak ovozi» ishtirokchilari orasida shior bo'lgan ushbu she'rim bilan yakunlamoqchiman:

*Tobora davrimiz bo'layotir keng.*

*Endi insoniyat notiqidirman.*

*Chunki men dunyoda tenglar ichra teng,*

*Mustaqil diyorning shoiridirman.*

– Mazmunli suhbatigiz uchun rahmat, Muhammad aka!

Feruza JALILOVA suhbatlashdi

7

Bu voqea qish oxirlarida bo'lgan edi.


Ko'ch-ko'ronimizni eshakilarga ortib, buzoq-sigir va o'n chog'li qo'y-echkilarni haydab, otam ikkimiz Qo'shto'ba tomon yo'l oldik. Tik dovon oshib manzilga yetgach, bo'lg'usi «qarorgoh» – qora uy (o'tov) uchun yaylovning kungay tomonidan joy hozirlab, keragalarni o'rnatishga kirishdik.

Ana shunday sertashvish kunlarning birida uyimizga mehmonlar kelishdi. Ularning yoshi ulug'i novcha bo'lib, qoshlari bir-biriga tutashib ketgan, ikkinchisi esa shopmo'yovli, istarasi issiq mo'ysafid edi. Mehmonlar so'riga chiqishgach, suhbat chog'ida ularning qo'shni viloyatda yashashi va otam bilan urushda birga bo'lganligini bildik.

Suhbat avjiga chiqib, qora uyga kiraverishdagi o'choqda yonayotgan o'tinning quyruq tutuni mol tezaging o'tkir hidi bilan qo'shilib, shiftdagi tuynukdan chiqib ketardi. Qumg'on shaqirlab qaynab yotar, suvi cho'g'ga sachrab charsillardi.

Bir payt dasturxonga ilon bolasi yaqinlashib, non ushoqlarini yeyishga endi chog'langanida, mehmonlarning shopmo'yovlisi bo'sh turgan sopol kosani uning ustiga to'nkarib yopib qo'ydi. Buni kuzatib turgan otam mehmon ko'ngli uchun e'tiroz bildirmadi.

Oq ilonlar o'ta zaharli bo'lib, ularni davlat ilonlari ham, deb atardik. Oilamizda hech kim tanasi sovuq bu jonivorlarga ozor yetkazmas, ularning ham bizga ziyoni



Hikoya

tegmadi. Shu vaqtga qadar ular bilan qora uyda yonma-yon, tinch-totuv va xotirjam yashab kelayotgan edik.

Onam dasturxonni yig'ishtirarkan, sopol kosa tagidagi ilon bolasiga ko'zi tushib, hayron bo'ldi. Murg'ak jonivor o'rmalagancha bir zumda qorong'ulik qo'yniga singib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Vaqt allamahal bo'lib qoldi. Mehmonlar endi dam olishga hozirlik ko'rishayotganlarida, uy shiftida osig'liq kadilarning biri «tap» etib tushib ketdi. Gilamga to'kilgan sutda qop-qora dog'izlarini ko'rib, ko'nglimiz behuzur bo'ldi.

– Ilon ishi – zahar solmoq, – dedi mehmonlarning yoshi ulug'i.

Shunda otam ham kerak gapni aytdi-qo'ydi:

– Xalqimizda yotgan ilonning quyruq'ini ham bosmaslik kerak, degan naql bor. Yomonni yaxshilik bilan yengish mumkin.

Shunda shopmo'yovli mehmon ilon bolasini bekordan-bekor «ushlab» turgani, ona ilonning esa qasdlashib qolib, bizdan o'ch olmoqchi bo'lgani va oqibati nima bilan yakunlanganligini anglab o'ng'aysizlanib qoldi.

– Xatochilik uchun uzr. Zarari tegmagan «qo'shni»ning foydasi tekkani shu ekan, – dedi u.

Men bu gaplarning ma'nosiga keyinchalik tushumib yetganimgagina o'sha kezlari kuz oxirigacha tanasi sovuq jonivorlar bilan yonma-yon, tinch-totuv va xotirjam yashaganligimiz yodimga tushdi.

Abdulla SAIDOV

## HAYRATLAR JILOSI



Kitob javoningizga


Ijodkorning ko'zi bilan boq-sangiz, bu ko'hna dunyo hayratlarga to'la. Ayniqsa, yosh ijodkorlar ko'nglida bu hayratlar o'z g'ach a jilolanadi, o'zgacha bo'y ko'rsatadi. Yosh ijodkorning o'ziga xosligi, o'z aytadigan so'zi borligi ko'ngilga quvonch baxsh etadi. Yosh qalamkashlarning ijod namunalari she'riyatimizda o'z o'rmini topdi. Kuni kecha G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi yosh ijodkorlarning «Kelajak yulduzlari» to'plamini nashrdan chiqardi.

«Kelajak yulduzlari» to'plamiga iste'dodli yosh ijodkorlardan Nasiba Omonova, Marhabo Umidova, Dilafro'z Baxriddinova, Maftuna Ikromova, Shohruh Jo'rayev, Ikromjon Mansurov, Kamola Mirzazoda, Dilfuza Mahkamova kabi ko'plab ijodkorlarning she'rlaridan namunalar kiritilgan.

Ushbu to'plam ham kitob javoningizdan munosib o'rin oladi, deb umid qilamiz.

Dildora RO'ZIMAHAMMATOVA

**BUGUNNING**



**«YANGI AVLOD» LARI**

Farrux IZOMOV 15 yoshda. Buxoro viloyatida tavallud topgan. 2006-yilda «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan «Yangi avlod» Bolalar ijodiyoti festivalida milliy cholg'u asboblari yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'lgan.

**– «Yangi avlod» festivali sizda qanday taassurot qoldirdi?**

– Mazkur festivalning saralash bosqichlari Respublikamizning turli chekkalarida o'tkazilayotganligi va mazkur festivalning aynan Bolalar ijodiyotiga bag'ishlanganligi ham tahsinga sazovordir. Mazkur festivalda qatnashish orqali men eng avvalo tengdoshlarim bilan fikr almashish, ular ijodi bilan tanishish imkoniga ega bo'ldim. Bundan tashqari, men ham o'z iqtidorimni katta sahnada namoyish etdim. Festivalda g'olib bo'lganligim menga juda katta poydevor bo'ldi va o'z ustimda ishlashga kirishdim. Boshqa tengdoshlarimga ham ana shu festivalda qatnashib, g'olib bo'lishlarini tilab qolaman.

Bobur NAZARMUHAMMEDOV

**Hayotdagi shiori:** insonlar qalbidagi mehr va muhabbatni san'ati bilan yana-da oshirish.

**Yoqtirgan fani:** adabiyot va tarix.

**Kitobi:** G'afur G'ulomning «Shum bola» asari.

**Filmi:** Zulfiqor Musoqovning «Osmondagi bolalar» filmi.

**Sport turi:** futbol.

**Eng katta orzusi:** kelajakda ota-onasi hamda ustozlari bergan bilim va saboqlarini oqlash va milliy qo'shiqlarimiz sonining oshishiga o'z hissasini qo'shishni o'z oldiga eng oliy maqsad qilib qo'yish.

\*\*\*

**– Qaysi xorijiy tillarni o'rganasiz?**

– Ingliz va rus tilini mukammal o'rganishga harakat qilmoqdaman.



**SEZGIR  
«BILMASVOYLAR»**

ruhiyatida bo'ladi. Bu fikrlar ko'plab misollar asosida isbotlangan. Masalan, bir bolakayning ota-onasi o'zaro tez-tez janjallashadigan odat chiqarishadi. Aksiga olib, bolakay ham injiq, qo'rqqoq, zaif bo'lib qoladi. Ona farzandini ruhshunosga olib borsa, u: «Bolangizga uydagi nosog'lom muhit ta'sir qilgan», deydi. Ayol bolaning oldida umuman janjallashmasliklarini aytadi. Shifokor esa bolalarda g'ayritabiiy sezgi qobiliyati bo'lishini, muammoni yashirish u yoqda tursin, hatto ko'ngildan o'tganini ham sezishlarini tushuntirdi. Shundan so'ng, ona janjallarning oldini olishga, faqat yaxshi narsalar haqida o'ylashga harakat qiladi. Darhaqiqat, shundan so'ng, bola ham tuzala boshlaydi. Ishonish qiyin, shundaymi? Lekin bu tadqiqotlar xulosasi.


Demak, uyimizda kichkintoylar betob bo'lib qolsa, dorixonaga emas, ruhiyatimizni poklashga shoshilaylik.

Muxlisa

MUSAXO'JAYEVA

8


**Rasmlar  
ko'rgazmasi**



Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi 5-sonli maktab-internatning 8-sinf o'quvchisi Munojot SOTIMOVA chizgan rasmlar

**SHIFOKOR  
QUYONJON  
MASLAHATLARI**

Tibbiyot ilmining yetuk bilimdoni Abu Ali ibn Sino «Dardning og'iri udir tish og'rig'i», deb bejizga aytmaganlar. Ana shunday dardning og'iriga chalinmaslik uchun, yoshlikdan tishlarimizni avaylab-asramog'imiz lozim bo'ladi. Qanday qilib, deysizmi? Bu juda oson. Tishlaringizni sog'lom bo'lishida o'zingiz uchun tish yuvish jadvalini tuzib oling va unga doimo amal qiling. Tishlaringizni yosh, sog'lom va kuchli bo'lishi uchun har kuni kamida ikki marta nonushtadan so'ng va uyquga yotishdan oldin O'zbekiston Stomatologlar Assotsiatsiyasi tomonidan tasdiqlangan tish pastalari bilan yuvish tavsiya kariyes paydo bo'shlig'i oldini olishda Muntazam meva va iste'mol qilish qiladi va ularni Qand va ruju qo'ymaslik esa to'kilib ketishini Tishlardagi



(issiq va sovuq) yo'qotish uchun quyidagi o'tlardan damlama tayyorlab, og'izni chayish kerak, shalfey (mavrak), kolindula (tirnoqgul), romashka (moychechak) o'tlaridan bir osh qoshiqdan solib aralastirilib, ustidan bir litr qaynoq suv solinadi, ikki soat tindirilib, bir qoshiq kalanxoq sharbatidan qo'shiladi. Bu damlama bilan ikki hafta davomida kuniga uch mahal og'iz chayiladi. Bu muolaja albatta kattalar yordami bilan amalga oshiriladi.

Tish olinganda, milkdan qon oqishi to'xtamaganda, quyidagi usullardan foydalaniladi: ikki osh qoshiq eman po'stlog'i ustiga bir stakan qaynoq suv quyib, sal sovugach, kuniga uch mahal og'iz chayiladi. Tish olingan sohadagi jarohat bitishi uchun oblepixa (chakanda) yog'idan surib turish lozim bo'ladi.

Nafisa RUSTAMOVA

**TABRIKLAYMIZ!**

Oilamiz quvonchi, shirin-shakar singiljonlarim Fotimaxon va Zuhraxon! Sizlarni o'n uch yoshingiz bilan chin dildan tabriklayman. Sizlarga uzoq umr, baxt-saodat tilab, aqlli va oqila qiz bo'lib ulg'ayishingizni, yaqinlarimiz baxtiga sog'-omon bo'lishingizni istab qoluvchi opajoningiz NAFISA.



**BOSH MUHARRIR:**  
To'lqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Dizayner va sahifalovchi:  
**Elyor ESHCHANOV**  
Navbatchi:  
**Gulyuz ORIFJONOVA**

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Turobjon JO'RAYEV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV  
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Sobirjon SHARIPOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

**Manzillimiz:**  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 144-27-25 144-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 144-38-10

**Rassomlar:**  
Nodira MIRZAYEVA,  
Feruz MATYOQUBOV

Gazeta «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.

Adadi - 18363  
Buyurtma N: J 4376

**Muassislar:**

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.